



DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARIDAGI FE'L LEKSEMALARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Quyanov Samandar Sayliyevich

Qarshi davlat universiteti

Lingvistika :O'zbek tili yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7540717>

ARTICLE INFO

Received: 06th January 2023

Accepted: 14th January 2023

Online: 16th January 2023

KEY WORDS

Devonu lug'otit turk, nusxa, fe'l, ravishdosh, sifatdosh, qo'lyozma, kotib, leksema, omonim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada "Devonu lug'otit turk " asari haqida ma'lumot, Asardagi fe'l leksemalarning funksional-semantik xususiyatlari, asardagi fe'l leksemalarning omonimligi, sinonimligi xususida so'z yuritilgan.

Devonu lug'otit turk" („Turkiy so'zlar devoni“) — Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda 11-asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. „Devonu lug'otit turk“ning qo'lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbahr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo'lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa asar yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya'ni Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al Damashqiy tomonidan ko'chirilgan. „Devonu lug'otit turk“ arab tilida yozilgan. 8 mingdan ortiq turkiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo'lmas edi. Turkiy tildagi cho'ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Maxmud Koshg'ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo'llaydi yoki so'z boshidagi cho'ziqlikni ikki alif bilan ko'rsatadi yoki 2 xil talaffuz qilinadigan so'zlarga 2 xil ishora qo'yadi: azuqluq, eritmak so'zlaridagi Z va R harflari ustiga ham kasma, ham damma ishorasini qo'ygan, demak, bu so'zlar o'sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmquluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turkiy talaffuzni „Devonu lug'otit turk“da izohlab, ta'riflab o'tgan. „Devonu lug'otit turk“da avvalo, otlar, so'ng fe'llar izohlanadi. So'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan.

Mahmud Koshg'ariy „Devonu lug'otit turk“ga o'zi tuzgan dunyo xaritasi (dunyoning doira shaklidagi tasviri)ni ilova qilgan. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va h.k.ning nomlari yozilgan. Xaritaga yozilmay qolgan bir qancha nomlar asar matnida izohlangan. Harita, asosan, hozirgi Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Asarda 11-asrdagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko'llar, turkiy qabilalar va urug'lar haqida,



urug'larning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug' va toifalari, ularning joylanishi, urf-odatlar, til xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari, hayvonot va o'simliklari, ularning nomlanishiga to'xtalib o'tadi. Astronomik ma'lumotlar, burj va muchal haqida ham ma'lumotlar bor. „Devonu lug'otit turk“da ayniqsa qabila va urug' tillariga oid lingvistik ma'lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so'zning ma'nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxaiik so'zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so'zlarning etimologiyasiga to'xtalib o'tadi. Tovushlar (fonemalar)ning taxlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unlilar, ularning urug' tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so'z turkumlarini, davr an'anasiga ko'ra, 3 so'z turkumiga: fe'l, ism, bog'lovchiga bo'lib, ularning yasaliish va turlanish yo'llarini ko'rsatib o'tadi. „Devonu lug'otit turk“da 250 dan ortiq maqol va matallar, o'nlab she'riy parchalar keltirilgan. Xususan, biz asardagi fe'l so'z turkumiga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Shaxs va predmetning ish-harakati va holatini ifodalaydigan mustaqil so'zlar fe'l deyiladi. Masalan: Men olimlarga, ilohiyotchilarga, tarixshunoslarga hurmat-ehtirom ko'rsatdim va e'zozladim. (A.Temur). Mehnat insonda ijodiy kuch uyg'otadi. Grammatikada harakat va holat tushunchasi juda keng. Fe'l holat, belgining yuzaga kelishi, o'zgarishi kabi jarayonlarni ham harakat tarzida anglatadi: o'rik gulladi, yaproqlar sarg'aydi, bola uxlayapti kabi.

Ish-harakatning biror grammatik shaxs (birlik yoki ko'plikda) tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligi fe'ldagi shaxs-son ma'nosida aks etadi. Fe'l shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi: qiziqdim, qiziqding, qiziqdi; qiziqdik, qiziqdingiz, qiziqdilar.

Tuslanish sistemasiga bo'lgan munosabatiga qarab fe'lar ikki asosiy guruhga bo'linadi:

-tuslanishli fe'llar.

-tuslanishsiz fe'llar.

Tuslanishli fe'l, albatta, shaxs-son jihatdan shakllangan bo'ladi. Lekin shaxs-son ko'rsatkichlariga egalikning o'zi tuslanishli fe'l deyish uchun asosiy belgi bo'la olmaydi. Maylning biror turiga mansub bo'lishlik tuslanishli fe'lning asosiy belgisidir. Tuslanishli formadagi fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Bunday fe'llar shaxs ma'nosiga egaligi tufayli yakka holda ham mustaqil gapni tashkil eta oladi.

Keldi (u keldi). Shu xususiyatiga ko'ra tuslanishli fe'llar predikativlikka moslashgan fe'l shakli hisoblanadi. Ayrim fe'llar mayl, shaxs-son, zamon ma'nolarini ifodalay olmaydi va shu ma'nolarni ifodalovchi formalarga ham ega bo'lmaydi. Demak, ular tuslanish sistemasiga ega bo'lmaydi, tuslanishsiz fe'l hisoblanadi. Bular harakat nomi, sifat-dosh va ravishdosh formalardir.

Shu formalar fe'lning ot, sifat va ravishga xos ma'no va vazifalarda qo'llanishga moslashgan formalardir. Harakat bildirishi jihatidan ular tuslanishli fe'llaridan farqlanmaydi. Sifat-dosh va ravishdoshning ayrim formalari zamon formasining yasaliishida xizmat qiladi. Lekin ular shaxs-son bilan tuslanib, biror zamon formasini hosil qilganda tuslanishli formalar qatoriga kiradi. Fe'lning funksional formalari bo'lgan harakat nomi, sifat-dosh va ravishdosh to'g'risida ilmiy adabiyotlarda har xilliklarini kuzatishimiz mumkin. Ushbu formalarning nomlanishi, qo'shimchalari yuzasidan turlicha qarashlar mavjud. Fe'lning gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajarishga moslashgan shakllari vazifadosh shakllari hisoblanadi.



Fe'llar uch vazifadosh shaklga ega:
sifatdosh.
ravishdosh.
harakat nomi.

Quyida "Devonu lug'otit turk" asarida qo'llangan ravishdosh, sifatdosh fe'lning vazifa shakllariga to'xtalib o'tamiz.

Fe'lning mumkinlik aspekti murakkab shakl yo'l bilan, ya'ni asosiy fe'lning -a j-e (y) affiksli ravishdosh shakliga al- fe'li qo'shilishi orqali ifodalanadi: bara al-, kerà al, bashlay al-, ishlày al- kabi. X III—XIV asrlar tilida bu vazifada bil- fe'li ishtirokida hosil bo'luvchi murakkab shakl ham qo'llangan bo'lib, bunda asosiy fe'l ko'pincha -u f-ü (yu/yü) affiksli ravishdosh shaklida keladi: ala b il-// alu bil-, korà bil-//korü bil-, bashlayu bil-, ishlayü bilkabi. Qiyoslang: Menim dldârim korà alg'ay-mu-sen? (QR). Bitul hasanâtqa netâk mukafat qilu bilâlim?

Sifatdosh. -adurg'an/ -edürgán / / -aturg(an/-etürgán, -asi/-esi,-£<tfr/-affikslari bilan hosil boluvchi sifatdoshlar qadimgi turkiy yodgorliklarda uchramaydi, eski o'zbek tilida ham kam qo'llangan.-adurg'an/ -edürgán / / -ajurg^nz-átürgán affiksli sifatdosh XIII asrdan keyingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda uchraydi: siz yeyâlug'an taamlardin bizgâ taqi iziy (QR)

-adurg'an/ -edürgán / / -aturg'an/-etürgán affiksi tuzilishi.jihatdan murakkab: -a/-ä(y) — ravishdosh yasovchi affiks; -dur/-dür — holat fe'li (tur-)ning fonetik o'zgargan shakli; -g'an/-gcin— o'tgan zamon sifatdoshi ko'rsatkichi (-a+dur+g'an). Hozirgi o'zbek tilida bu affiks -adigan (ydigan) shaklida qo'llanadi (bar+adigan, ishlâ+ydigan kabi).

-asi/-äsi affiksli sifatdosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda uchraydi: Hech yer qalmadi ayaqin urasi (Tafsir). Tilâmâz erdi andin or) yegâsi (XSH). Kelâsi mehnat tashvishi bilan... (Saroyi).Bu sifatdosh tarixan o'g'uz va qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lgan. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy ham ma'lumot bergan (MK, II tom, 71—73-betlar)

mish/-mish affiksli o'tgan zamon fe'li shakli hozir o'g'uz guruhidagi turk, ozarbayjon, gagauz tillarida turli ma'no va vazifalarda faol qo'llanadi. O'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda esa bu shakl iste'moldan chiqqan bo'lib, uning o'rnida -g'an/-gân //-qan/~kân affiksli o'tgan zamon fe'li qo'llanadi.

-g^n/^gân //-qan/-kân affiksli shakl. Bu shaklning yozuv yodgorliklarda qo'lanishi XI asrdan boshlab kuzatiladi. Lekin shu davr yodgorliklari "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit turk"da bu shakl sifatdosh shaklini tashkil etib, asosan aniqlovchi vazifasida qo'llangan. Yozuv yodgorliklarda bu shaklning o'tgan zam on fe'li vazifasida qo'llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi.

-g'an/-gân //-qan/-kan affiksli o'tgan zamon fe'iining bo'lishsiz shakli quyidagicha uch xil yo'l bilan hosil bo'ladi:

- a) fe'lning -ma/-ma affiksli bo'lishsiz shakli asosida: barmag'an (bar+ m a+ g'an), kelmâgân (kel+m â+gân) kabi;
- b) er- to'liqsiz fe'lining ermàs (emâs) shakli yordamida: barg'an ermàs, kelgân ermàs kabi;
- d) egalik affiksi+yoq inkor so'zi ishtirokida: barg'an yoq



(barg'ani yoq), kelgàn yoq (kelgàni yoq) kabi. Yozuv yodgorliklarda asosan -ma/-mà affiksi bilan hosil bo'luvchi barmagan tarzidagi shakl qo'llangan bo'lib, barg'an ermàs, barg'an yoq (barg'am yoq) tarzidagi shakllar kam uchraydi.

Ravishdosh. Ergash gaplarning shakllanishida - (i)b shaklli ravishdoshning roli kattadir. Bu shaklli ravishdosh qurilm asi turli mazmun munosabatlarini ifodalagan, uning mazmun va vazifa doirasi, hozirgi zamon tilida qo'llanishiga qaraganda ham, kengroq bo'lgan:

1. Ravishdosh qurilmasi holat-payt munosabatini ifodalaydi.

— bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro'y berish holati va paytini ko'rsatadi:

Ay qopub ewlänüb, Aq bulit erUinüb, Bir-bir üzß ekiünüb Sachlub suwi eyräshür — Oy chiqib, atrofini bulut doirasi — o'tovi o 'raganda, buluttar bir-birining ustiga mingashib gulduros bilan suvlarni to'kadi (D L T, I, 258, 1—4).

Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, -(i)b shaklli ravishdosh qurilmasi ham payt, ham holat munosabatini ifodalab qolmay, ular b a'zan bog'langan qo'shm a gapga yaqin bo'lib, qo'shma gap qismlari mazmunan ancha mustaqil bo'ladi, ba'zilarida payt-holat mazmunidan tashqari sabab ma'nosi ham bo'ladi, ayrim hollarda payt m a'nosi ustun bo'lsa, boshqa hollarda holat munosabati ustun bo'ladi. Masalan: Ihti bolub yüzi terin — Yuzi burishib, ichdi (DLT).

Ravishdosh qurilmasining bu m a'no munosabati hozirgi zamon o'zbek tilida ham qo'llanadi. Ravishdosh qurilmasi shart munosabatini ifodalaydi:

Yarjshaq telim sayrab ani tamgbq qatar — Behuda so'zlar ko'payib ketsa, og'iz qurib, ja g ' qayishadi (DLT).

Bizga ma'lumki, fe'l anglatgan ma'nolar bir qator mazmuniy guruhlariga ajratiladi, bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, psixologik, iqtisodiy, tafakkur bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi [3:60]. O'zbek tilida nutq fe'llari, harakat fe'llari, holat fe'llari yuzasidan maxsus tadqiqot ishlari bajarilgan.

Tilshunoslarimizning e'tirof etishlaricha, fe'llar bir tildan boshqa tilga juda kam o'zlashadi. Ma'lum darajada fe'lning bir xil sifatidagi miqdori shu tilning so'z boyligi darajasini belgilasa, har bir birlikning ko'p ma'noliligi shu tilning ifoda usuli kuchini ham ko'rsatadi.

Maxmud Koshgariy tillarning so'z boyligini mukammal bilgan ijodkordir. Mana shu katta boylikdan o'z ijodida kerakli o'rinlarda samarali foydala olgan. Ayniqsa, harakatni ifodalovchi fe'l sinonimlardan unumli foydalanib, takror so'z qo'llashdan o'zini cheklagan. Masalan, " Devonu lug'otit turk " tilida yashirindi, yumdi, bekitdi, yashirdi fe'llari qo'llangan bo'lib, bu fe'l leksemalar o'zaro sinonimik munosabatdadir.

يُمْدِي | ŷm dī — юмди, бекитди. آر كۆز يُمْدِي | ər kōz
يُمْدِي — одам кўзини бекитди. (يُمَار. يُمَاك) | ŷmār.
| ŷmmāk⁷⁴.



ол jëpîg jапурдî – у ерни ярақлатди, текислади.
جۈپۈگ جاپۇردى – яширди. ۋەر سۈزۈك ۋەر سۈزۈگ
jапурдî – одам сўзни яширди. (يۈرۈر. يۈرۈر) jاپۇ-
رۈر, jاپۇرماق).

Shuningdek asardagi omonimlik hodisasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, omonimlikni hosil qilgan ba"zi so'zlarning asos qismida bugungi kunda ham omonimlikni mavjud. Lekin bunday so'zlarning omonimligi boshqa- boshqa ma"nolarda qo'llanilishi bilan farqlanadi. Masalan, "Devonu lug,,oti-t-turk"da keltirilgan jÿzdi so'zini olaylik, ushbu so,,z uch xil ma"noda omonimlikni hosil qilgan. 1) suzdi ma"nosida.  r suwda jÿzdi- odam suwda suzdi;

2) yoyildi, siljidi ma"nosida. Iri  jÿzdi- yiring badanda, yarada yoyildi;

3) shildi ma"nosida.  r tug'um jÿzdi- odam so'yilgan hayvon terisini shildi. Jÿzdi so'zi bugungi kunda birinchi ma"noda qo'llangan "suzdi" shaklida qo'llaniladi. Bu so'z ham turli xil ma"nolarga ega shakldosh so'z sanaladi. Bugungi kunda iste"molda bo'lgan "suzdi" so'zi "Devonu lug,,oti-t-turk"da qo'llangan "jÿzdi" so'zining birinchi ma'nosi kabi bir xil ma"noda qo'llaniladi. Ya"ni, Suz- fe"l. Suvda harakatlanmoq. Suzgich. Daryodan suzib o'tmoq. Qayiqda suzmoq. Suvda suzish bo'yicha musobaqa o'tkamoq... Biroq keyingi ma"nolar tubdan farq qiladi. Suz- fe"l. Ovqatni idishga solmoq. Aziz oshni guldor sopol laganga suzib keldi.

Xulosa qilib aytganda, " Devonu lug'otit turk " qadimgi turkiy tillar yodgorligi hisoblanib, o'zida turkiy tillar grammatikasiga oid ko'plab ma'lumotlarni mujassamlashtirgan.

References:

1. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. (o'quv qo'llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.
3. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit-turk (S. M. Mutallibov nashri, Toshkent, 1960, 1961, 1963)
4. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (Morfologiya) - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001.- B. 60.
5. International Vritual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasiaconference.com> January 20th 2021